



TOG'AY MUROD VA ERNEST XEMINGUEY ASARLARIDA
UMUMINSONIY MASALALAR TALQINI

*Rozikova Dildora Umrboy qizi,
BuxDU 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ernest Xeminguey va Tog'ay Murod asarlarida umuminsoniy masalalar: sevgi va urush muammolari xususida gap boradi. Shu bilan birgalikda g'arb va sharq adabiyotida bu masalarning asardagi o'rni haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: umuminsoniy masala, inson, urush, sevgi, insof, millat, an'ana, o'lim, kurash, ozodlik.

Abstract: This article discusses universal issues in the works of Ernest Hemingway and Togay Murad: the problems of love and war. As well as, the role of these issues in the works in Western and Eastern literature is discussed.

Keywords: universal issue, man, war, love, honesty, nation, tradition, death, fighting, liberty.

Аннотация: В статье рассматриваются общечеловеческие проблемы в творчестве Эрнеста Хемингуэя и Тогая Мурада: проблемы любви и войны. А также обсуждается роль этих проблем в произведениях западной и восточной литературы.

Ключевые слова: всеобщая проблема, человек, война, любовь, честность, нация, традиция, смерть, борьба, свобода.

Kirish. Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, millatlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezonini hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushunchadir. Bu tushunchani faqatgina ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma'no-mazmun kasb etadigan tushunchalarda ko'rib bo'lmaydi. Yoki bo'lmasa, muayyan hududga xos an'ana va urf-odatlar ham bu fenomenni to'liqligicha ifodalab ko'rsata olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar, albatta, ijtimoiy jarayonlar rivojida o'zining muhimlik darajasini bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Masalan, yurtida urush bo'lsa, yoki dushmanlar hukmronligi bo'ladigan bo'lsa – ozodlik, mustaqillikka intilish, yurt mustamlaka bo'lsa-yu, quyuq bulutlar unga ko'lanka solayotgan bo'lsa, albatta- vatanparvarlik, urush davri yoki sharoiti bo'lsa, tinchlikka va barqaror hayot sari intilish kuchaya boradi. Bugungi kunda umuminsoniy masalalar, barcha uchun tobora umumiy mezon bo'lib bormoqda va buning o'ziga xos sabablari bor, albatta.

Asosiy qism. Aynan mana shunday umumbashariy xususiyatlarning yorqin misoli, Tog‘ay Murod va Xeminguey ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har ikkala adib ham umuminsoniy masalalarni chuqur tahlil qilgan. Muhabbat, oila qurish, urush kabi umuminsoniy masalalar Tog‘ay Murod asarlarida ham Xeminguey asarlarida ham keng va atroflicha yoritilgan. Bu ikkala adib asarlarida sevgi-muhabbat mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Inson zoti yashar ekan sevlashga, sevilishga ehtiyoj sezadi. Xeminguey sevgini biroz murakkabroq va keng qamrovli qilib tasvirlaydi. Xeminguey sevgi mojarosini ikkilamchi motiv sifatida “Alvido Qurol” asari tarkibiga singdirgan. Achinarlisi, bu asarda sevgi fojia bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Genri va Ketrinning sevgisi ham aslo, Tog‘ay murod qahramonlari sevgisidan aslo kam emasdi. Genri Ketrinni shunchalar qattiq sevardi-ki, uning ko‘zlari undan boshqa hechkimni ko‘rmas edi. Genri Ketringacha ko‘pchilik bilan tanish bo‘lgan, lekin uning Ketringa sevgisi pok va samimiy edi. Tog‘ay Murod asarlarida ayollar pokiza, samimiy, vafoli yor sifatida gavdalansa, Xeminguey, ularni yengiltak va faqatgina ko‘ngilxushlik vositachisi sifatida tasvirlaydi. Dastavval, Genri ham Ketringa oddiy bir mashuqa sifatida e‘tibor beradi keyin esa uning ummon kabi keng qalbiga oshiq bo‘ladi. U sevgi haqida gapirar ekan, insonlar o‘rtasidagi sevgini va do‘stlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalaydi. Shu o‘rinda Tog‘ay Murod ham sevgi munosabatlarini berilib, joniqib kuyga soladi. U insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini chiroyli bo‘yoqlar ila chizib beradi.

Badiiy adabiyotda urush mavzusi azaldan faol mavzu bo‘lib kelayotganligi barchamizga ma‘lum. Ushbu motiv G‘arb va Sharq adabiyotida aynan bir xil qalamga olingan bo‘lsa-da, turli mintaqa mualliflarining dunyoqarash va yondashuvlarida ma‘lum tafovutlar mavjudligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu, asosan, qahramon ruhiy holati, ichki dunyosi, kayfiyati bilan bog‘liq tarzda kechishini alohida ta‘kidlash joiz. Xususan, G‘arb nasriga mansub urush bilan bog‘liq asarlarda: Xeminguey “Alvido Qurol”, Erix Mariya Remark “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, Boris Vasilyev “Ro‘yxatlarda yo‘q edi nomi”, Tolstoyning “Urush va tinchlik”, kabi asarlarda ko‘proq jamiyat va inson o‘rtasidagi konflikt ustunlik qilsa, Sharq adabiyotidagi: O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko”, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, Shuhrat “Shinelli yillar” kabi asarlarda insonning boshqa bir inson bilan yoki boshqa bir tuzum bilan qarama-qarshiligi asosiy o‘rin tutadi. Shu o‘rinda aytish joizki, Yevropa adabiyotida XX asr boshidayoq ruhiy konflikt yetakchi o‘ringa chiqib ulgurgan edi. Yevropa va Osiyo adabiyotida urush va urush mavzusida yaratilgan asarlar yaratilish uslubi, tanlangan makon va zamon, badiiy g‘oya kabi bir qator jihatlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bunga asosiy sabab sifatida XX asr Osiyo adabiyotida urush mavzusini qalamga olgan mualliflardan farqli o‘laroq, Yevropa adiblarining front dahshatlarini bevosita boshdan kechirgani, asarlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri urush zobiti yoki ofitseri tilidan yaratilgani va o‘sha davr G‘arb davlatlarida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy tanazzul bilan izohlash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, urush va inson mavzusida yaratilgan jahon adabiyoti vakillari va o‘zbek adiblari o‘rtasida mushtaraklik yaqqol sezilib turadi.

Natijalar va muhokamalar. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida Ayniqsa, Qoplon va Oymomo o‘rtasidagi pok muhabbat, insonni hayratlantirmay, ko‘ziga yosh keltirmay qo‘ymaydi. Bu qissa zamirida umrboqiy va umuminsoniy qadriyatlar sevgi munosabatlari, eng oliy ne‘mat bo‘lmish farzand ko‘rish istagi o‘z ifodasini topgan. Asarni o‘qish jarayonida guvohi bo‘lishimiz mumkinki, Qoplon va Oymomo o‘rtasida deyarli hechqanday kelishmovchilik ko‘zga tashlanmaydi. Ular bir-birini qattiq sevishardi, ularning o‘rtasidagi tuyg‘u shunchalar yuksakki, hech qanday kuch ularni ajrata olmaydigandek tuyuladi. Ularning bir-biriga bo‘lgan munosabati shunchalar ehtiyotkor, shunchalar samimiy ediki, quyidagi fikrlarda fikrimiz o‘z tasdig‘ini topadi. “Kuyov qaylig‘iga hayitlik yubordi, qayliq kuyoviga hayitlik yubordi. Qoplon kuyov tarafdin bir farangi ro‘mol, bir juft kavush, uzuk hamda turli-tuman qand-qurs keldi. Oymomo qayliq tarafdin ko‘ylak, jelak, belqars hamda qo‘lro‘mol hayitlik keldi. Bari qayliq qo‘lidan bo‘ldi. Buni ro‘molcha qoq belida qip-qizil cho‘g‘dayin tovlanmish atirguldin bildik. Atirgul qayliq kuyovga ro‘molcha emas, ko‘ngil yubormish ramzi bo‘ldi. Kuyov ro‘molchani yuzlariga bosib-bosib hidladi. Ro‘molchadin... ro‘molchadin qaylig‘i havosini oldi. Ro‘molchani ko‘zlariga surtib o‘pdi, peshonasiga surtib o‘pdi, lablariga surtib o‘pdi. O‘pdi-o‘pdi, to‘rt buklab qo‘yniga tiqdi”. [2, 30]. Ularning Hayit bayramida sovg‘a almashinish jarayoni esa, ular o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkam ekanligini ko‘rsatadi. Qoplonbekning ro‘molchani hidlash va o‘pish jarayoni uning yoriga nisbatan chuqur va murakkab his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Zimdan qaraganda, ro‘molcha oddiy bir buyum shaklida namoyon bo‘lishi mumkin, ammo kuyov uchun qaylig‘ining sevgisini va mehrini anglatadi. Ammo bir kam dunyo deganlaridek, go‘yoki osmon hasad qilgani misol, Olloh barchaga bergan farzandni ularga bermaydi, ularni farzand dardi bilan sinaydi. Ammo bu sinov ham ularni ajrata olmadi, ularning muhabbatini yanada kuchaytirdi. Qoplonning ota-onasi bir-necha marta oldilariga chaqirib, Oymomo bilan ajrashib boshqaga uylanishini maslahat berishadi, ammo, hech ham ikkilanmay, Qoplon buni rad etadi, hattoki otasidan qarg‘ish ham oladi. Bu ikkalasi farzand ko‘rish istagida bormagan tabibi, ko‘rinmagan doktori qolmadi. Ammo ular farzand ko‘rolmaydilar. Agar Qoplon Oymomodan voz kechsa, va boshqasiga uylansa, farzand ko‘rish ehtimoli bor, ammo ular bir-biridan aslo voz kechmaydi. “Hazrati Xizr bovajonim! Sadag‘angiz ketayin, hazrati Xizr bovajonim, meni avf eting! Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodon-lik qildim, ko‘rlik qildim! Avf eting, hazrati Xizr bovajonim! Aslida sizni yo‘qlashim darkor edi! Men qayoqqa borishimni bilmadim-da, qayerda ekaningizni bilmadim-da, hazrati Xizr bovajonim! Qola bersa, huzuringizga borishga haddim sig‘madi! Men bir faqir odam bo‘lsam, qanday-da boraman! Endi, ovora bo‘lib o‘zingiz kelibsiz, bovajonim! Qulluq, bovajonim, qulluq! Hazrati Xizr bovajonim, men bir sho‘rpeshona bandaman! Tirnoqqa zorman! Eshityapsizmi, tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz tilang, manavi chophonimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo‘ldi, hazrati Xizr bovajo-nim!..

— Menga mol-dunyo darkor emas...

— Unda, menga bir farzand bering, hazrati Xizr bovajonim! Dunyodan qo‘li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajon! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo‘lsa-da bo‘ladi! Faqirga palov!

Bilasizmi-yo‘qmi, Xushvaqt yo‘lida ko‘zimiz to‘rt, hazrati Xizr bovajonim!” [2, 65].

Ularning farzand ko‘rish hissi, shunchalar ustunki, dunyodagi bor g‘ami-yu bor orzusi, hattoki, yashashdan maqsadi ham shu bir so‘zda, farzand so‘zida, mujassamlashgan. Farzand ko‘rish, ota onalik baxtiyaga muyassar bo‘lish har bir insonning orzusi, niyatidir. Chunki har bir inson o‘zidan zurriyod qoldirishni, naslini davom etishini xohlaydi. Ammo shu kunlarni ya‘ni onalik baxtini kuta-kuta, hayotining so‘nggi lahzalarida bir begona bola orqali onalikni his qilib, bu yorug‘ olamdan ko‘z yumdi. Xeminguey asaridagi Ketrin ham xuddi Oymomodek asarda fojiali tarzda jon berdi, Ketrin va Genri ham Oymomo va Qoplon singari Olloh yaratgan juftliklar edi. Ketrinning yumshoq, sokin, mas‘uliyatli xarakteri har qanday yigitni o‘ziga rom etardi. “-Salom! – dedim. Uni ko‘rgan zamon oshiq bo‘lib qolganimni angladim.... – jonginam, - dedim men. – siz ajoyibsiz.....- meni sevasizmi? – Men seni juda sevaman, men devona bo‘lib qolaman.[3,199]. Ushbu jumladan ko‘rish mumkinki, Genri qizni haqiqatda sevgan, hattoki uning ishqida devona bo‘lgan. Ammo urushning mislsiz dahshati tufayli ular baxtli hayot kechirisha olmadi, urushning qirg‘ini ularnida cheklab o‘tmadi. Genri hattoki sevgilisini deb urushnida tark etdi. Uning uchun barcha narsaning a‘lolarini afzal ko‘rardi. Lekin bu shavqatsiz hayot ularni birga bo‘lishini xohlamadi, ularni bir-biridan ajratdi. Bu fojيانing asosiy sababchisi esa urush sifatida ko‘rsatiladi. Ernest Xemingueyning “Alvido qurol” va Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar “asarlari tahliliga yuzlanganda, o‘z tasdig‘ini topadi. Ernest Xemingueyning “Alvido qurol” romani birinchi jahon urushi davrini batafsil yoritib bergan. Roman avtobiografik turdagi asar hisoblanadi, chunki Xeminguey haqidagi tarixiy faktlarga tayanadigan bo‘lsak, adibning o‘zi ham asarning bosh qahramani Frederik Henri kabi Italiya frontida xizmat qilgan, jangda yaralangan va Milan kasalxonasida yotib davolanish jarayonida bir hamshirani yoqtirib qolgan va shu sevgi hikoyasini asarda batafsil yoritib bergan. Muallif asarning boshdan oxirigacha urush dahshatini ro‘yi-rost, butunligicha tasvirlab bergan. “Alvido qurol” romanida Birinchi jahon urushining Italiyadagi holati aks ettirilgan va barcha xarakterlar hayoti urush orqali shakllangan. Xarakterlarning ko‘pchiligi Henry va Caterinadan tortib to askarlar, do‘kon egasi barchasi Xemingueyning urush bu vaqtni ma‘nosiz, maqsadsiz sarflash degan g‘oyasini ifodalab ko‘rsatish uchun kiritilgan. Kamdan-kam xarakterlar masalan, mutaassiblar urushni qo‘llab-quvvatlaganlar, urush tarafdori bo‘lishgan. Urush dahshatli, shunchalik dahshatli hodisaki, unda ishtirok etgan askarlarning umriga zavol bo‘lgan yoki judayam sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. U nafaqat ularning hayoti va oilalarini buzgan, balki begunoh aholining his-tuyg‘ularini ham vayron qilgan. Bu romanda Xeminguey urushning dahshatli vaqtida zavolga yuz tutgan muhabbatni, aynan fojea sababi ham urush ekanligini yorqin bo‘yoqlarda aks ettirgan. Endi baxtga erishdik deganda Ketrin vafot etadi. Insonlar taqdiri mana shu yo‘sinda bo‘lganligi, baxtli kun ko‘rishmaganligi, ularning hayoti to‘siqlarga,

chalkashliklarga to‘la bo‘lganligi asar mazmunida o‘z ifodasini topgan. Asar boshlanishidayoq, yozuvchi birinchi jahon urushi manzarasini chizib ko‘rsatadi.

“Tog‘larda jang ketmoqda edi, kechalari portlashlardan yolqinlar ko‘tarilardi. Qorong‘ida ular shafaqqa o‘xshab ko‘rinardi: faqat tunlari etni junjiktiruvchi sovuq bo‘lar havo quruq edi; ba‘zan qorong‘ida derazadan qo‘shinlarning o‘tib borishini, to‘p-to‘pxonalar tortib kelayotganini eshitib qolardik. Tunda yo‘lda qatnov zo‘rayar, ikkala tomoniga yashik-yashik o‘q dori ortgan xachirlar, ustiga soldatlar tushgan, yuklariga brezent tashlagan kulrang mashinalar shoshilmay to‘xtovsiz o‘tib turardi”. Bu parchani o‘qigan har bir insonning ko‘z oldida urush manzaralari gavdalanadi, chunki tasvir juda aniq va haqqoniy. Ernest Xeminguey urushda ishtirok etganligi sababli bu tasvirni go‘yoki mo‘yqalam sohibidek chizib beradi. “Urush Xemingueyga ulkan zarba berdi va bu uning hayotga qarashi o‘zgarishiga olib keldi. Barcha umidlari barbod bo‘lganidan so‘ng, Xeminguey vijdotsiz jamiyat va aysh-ishratga berilgan tashkilotlarning insonlarni qurbon qilayotganini, zamonaviy hayotning maqsadsiz va ma‘nosiz ekanligini ko‘rdi.”²²⁹

Urush ikki oshiqni to ular ayrilmaguncha ularga zarba berishda davom etdi. Barcha odatiy munosabatlarga qarshi bo‘lgan urush ularni turmush qurishiga to‘sqinlik qildi. Garchand genri urushning mantiqsizligi va xavfidan ogoh bo‘lsa-da, u ishini tark etmadi. Uning safdoshlarining ma‘nosiz va shavqatsiz o‘limi Henrini dovdiratib, urush dahshati uni tushkun ahvolga solib qo‘ydi. Oxir-oqibat urush uni shikastlashini tushundi. “Alvido qurol” romanidagi barcha urushdan aziyat chekkan va tushkun kayfiyat hammani o‘z domiga tortgan. Bundan tashqari asardagi tabiatdagi har bir narsa qisqa umrli va umri poyoniga yetgan hamda u begunoh askarlarning umriga qiyos qilingan. Bu urush Xeminguey tasavvurlarini xiralashtirdi, u urushga bo‘lgan nafratini ifodalash uchun urush dahshati, xavfi, qo‘rquvi va tartibsizligini tasvirlash uchun istehzoli fikrlardan foydalandi. Shuningek, u nafaqat insonni balki uning qadr-qimmatini o‘ldirgan urush shavqatsizligini berishda ham istehzoli ifodalab berish uslubidan foydalangan. Umuman olganda, Xemingueyning bu asarini o‘qigan har bir insonda urushga nafrat uyg‘onadi, o‘quvchining qalbida adovat urug‘lari ekiladi va haqiqatda ham o‘zini urushdagidek his qiladi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham aynan Birinchi yoki Ikkinchi jahon urushi emas, balki o‘tgan asrning 80- yillaridagi afg‘on urushi, o‘sha jangda ishtirok etgan va shu sababli umr bo‘yi hayotda halovat topolmagan bir jangchi tilidan hikoya qilinadi. Yoki “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” ning “Urushlar haqida” deb nomlangan bobida: “Urushda g‘olib va baxtli podshoh, g‘olib va baxtli qo‘shin, g‘olib va baxtli tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo baxtli va g‘olib odam bo‘lmaydi, negaki urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi, odam o‘ldirgan odam esa hechqachon g‘olib va baxtli bo‘lmaydi”. [6, 22] degan jumlar o‘z ifodasini topadi. Shu o‘rinda urush qoldirgan jarohatlar, urushning oqibat va natijalari aks etgan asarlar sirasiga Tog‘ay Murodning

²²⁹ Surendra Singh Chandel, *violence in Hemingway*. (Jaipur: print wall, 1994) 64

“Otamdan qolgan dalalar” asarini yorqin misol sifatida keltirish mumkin. Bu asarda aynan urush haqida gap ketmaydi. Chunki adib Ikkinchi jahon urushi tugaganidan uch yil keyin tug‘ilgan, urushda o‘zi qatnashmagan u haqida ota-bobolaridan eshitgan, buning ustiga O‘zbek xalqi front orti ishlarida jonbozlik ko‘rsatgan, oilasi yoki farzandlarini ta‘minlashdan ko‘ra Sovetlar aqidasini ustun qo‘yishgan. Ammo “Otamdan qolgan dalalar” romani qahramoni Jamoliddin ketmon Rossiyaning Turkistonga hujum qilganini, ya‘ni urushni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, rus istilosi shohidi, iymon-e‘tiqodini butunligicha saqlab qola olgan shaxs sifatida gavdalanadi. Uning o‘g‘li Aqrab ham qizil imperiya saltanatining tarkib topish davri guvohi, u ham qancha tahqir-nadomatlar bo‘lishiga qaramay, o‘zligini unutmagan mustamlakachilarga qarshi kurashda umri zavol topgan qahramon. Uning ham ona yurtiga muhabbati cheksiz, g‘ururi baland, o‘z yurtida bek bo‘lib yurishni xohlaydigan ozod shaxs. Ammo Dehqonqul bunday tuyg‘ulardan, bunday xususiyatlardan yiroqda va begona. Uni, avvalo, Lenin ishiga, partiyaga, sho‘rolar hukumatiga, ulug‘ og‘aga hurmat ruhida tarbiyalashgan, unga Leninni ota, Krupskayani ona deb o‘rgatishgan, o‘lan-laparlarni emas balki partiya qo‘shiqlarini aytib katta bo‘lgan.²³⁰ Ernest Xeminguey o‘z asarlarida “yo‘qotilgan avlod” tushunchasini tilga oladi. Bu bilan u urush sababli yoshligi ko‘lankasimon bulutlar ostida o‘tgan, ularni vataniga nisbatan mehri qolmagan va hattoki, yurtidan qochib ketishga tayyor turgan hissiz, maqsadsiz, umidsiz kishilarni nazarda tutgan. Biz aynan Dehqonqul obrazida yo‘qotilgan avlodning bir yetuk namunasini ko‘ramiz desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Haqiqatdayam, urush, uning istibdodi butun bir avlodni yo‘qotdi. Jamoliddin ketmon bor edi o‘z davrida ozod bir inson sifatida, aqrab ham xuddi shunday, har qanday vaziyatdayam o‘z so‘zini qo‘rqmasdan ayta olgan, o‘z aqidasiga sadoqatli qolgan, lekin, afsuski, bu avlod davom etmadi. Chunki, Dehqonqulda mana shunday yuksak tuyg‘ulardan asar ham yo‘q. Dehqonqul faqat dehqonchilik ilmini miridan-sirigacha o‘rgangan, sadoqat bilan mehnat qilishni qilishni biladigan, o‘ziniyam, bolalariniyam, ayoliniyam o‘ylamaydigan, o‘ysiz, hissiz, aniq qilib aytganda manqurt kimsa. Asarni o‘qir ekanmiz, Dehqonqulning bolaligidan to yetukligigacha unga achinamiz, Chunki yoshligidan azob-sitamlar iskanjasida voyaga yetgan bu yigit azob-uqubatni o‘ziga kasb qilib oldi. To‘rtinchi sinfni tugatib ilk bor paxtaga chiqadi, lekin planni bajarolmay har kuni direktordan kaltak yeydi, mana shu holatda uning holatiga haqiqatan achinsak, keyingi achinishlar istehzoli bo‘ladi. U shunchalik tasvirlashga qiyin kimsaki, o‘zining, tengdoshlarining, hamqishloqlarning ayanchli ahvoli aslo uni taajjublantirmaydi, qozoni umuman go‘sht ko‘rmaydi, farzandlarning qorni och ammo, Dehqonqulday noshud inson uchun buning zarracha ham ahamiyati yo‘q. Dehqonqul - o‘ziniyam ayoliniyam, hattoki, onasiniyam baxtli kun ko‘rishga qo‘ymaydigan, ertadan kechgacha faqat partiya uchun ishlaydigan, ayollarinida ishlashga majbur qiladigan, o‘zining qadrini bilmay ishlaydigan, hayotda maqsadi yo‘q faqatgina ishlab kommunistlar ko‘ziga yaxshi ko‘rinishga uringan

²³⁰ Umarali Normatov “Benazir iste’dod sohibi” maqolasidan

obraz hisoblanadi. Asarda tasvirlanishicha, o‘sha davrda yashash, kun ko‘rish juda qiyin edi, oddiy ovqat yeyish uchun ham kun bo‘yi tinimsiz mehnat qilish kerak edi, mehnat qilish aslida yomon odat emas, uning samarasi yaxshi bo‘lsa, albatta. Bu mehnat esa oxiri rohatsiz, farog‘atsiz mehnat. Chunonchi “Shunda ayolimiz o‘ng qo‘ltig‘i ostiga ko‘zimiz tushdi. Og‘zimdagi og‘zimda qoldi, bo‘g‘zimdagi bo‘g‘zimda qoldi. Bir nafas kavshanmay qoldim. Ayolimiz qo‘tig‘iga tikilib qoldim. Ayolimiz ko‘ylagi qizil bo‘ldi, qo‘ltiq osti ...olachalpak oq bo‘ldi. Ko‘zim adashayaptimikan deya tikilib-tikilib qaradim. Ayolimiz bilib-bilmay qizil ko‘ylagini oq bilan yamab olibmikan deya e‘tibor berib qaradim. Yo‘q, oqarib turmush olachalpak yamoq bo‘lmadi, olachalpak ter bo‘ldi, qotib qolmish ter bo‘ldi” [5,188]. Aynan mana shu jumalardan bilib olish mumkinki, urush insoniyatdan uning insonligini tortib oldi, uning mehnatini tortib oldi, uning haqqini tortib oldi. Bechora ayol kun bo‘yi dalada ishlaydi, ko‘ylak almashtirayin demaydi, kun-u tun bir ko‘ylak kiyadi, oyna qaramaydi, chunki oynaga qarash uchun farzandlaridan ortib daladan ortib vaqti yo‘q. Ammo Dehqonqulda umuman bularga achinish hissi yo‘q, go‘yoki sovetlar uni o‘zi uchun tarbiyalab olgandek. “Raisimiz ayoliga go‘shtni berdim. bor gapni aytdim. – Nima ko‘p yomon qovunni urug‘i ko‘p... deya ming‘illadi raisimiz ayoli. –Unday demange hamsoya, -dedim.-Nimaga demayman, deymen. Umrin kattalarga qozon qaynatib o‘tdi, bola-chaqaga boshqa qozon, kattalarga boshqa qozon qaynataman. Bilmayman kattalar osmondan tushganmi?” Ha katta akalarni, ulug‘ rus akalarini nazarda tutib gapirar ekan, raisning ayoli ulardan juda nafratlanadi, bolalarning, butun millatning haqqi ularga ketayotganligini bilib achinadi, ulardan nafratlanadi. Ammo Dehqonqul shu o‘rinda ham o‘sha katta akalarning yonini olib qo‘yadi. Umuman olganda, urushning natijasi sezilarli bo‘ldi, urush yutdi, chunki urush oqibatida mana shunday Dehqonqulga o‘xshash manqurtlar paydo bo‘ldi. Ularda kelajakka umid, ishonch, olg‘a qadam bosish istagi yo‘q, ularning qorni to‘q bo‘lsa shuning o‘zi kifoya qiladi, insonga xos bo‘lgan his-tuyg‘ularda ularga begona. Jahon adabiyotida urushning ta‘siri haqida bitta mushtaraklik bor. Ular o‘ziga xos avlodni tarbiyaladi. Xeminguey asarlarida tilga olgan “Yo‘qotilgan avlod” hissiz, didsiz, vatan nima, yurt nima ekanligi bilmay o‘z yurtini og‘ir kunda tashlashga qodir bo‘lgan, ma‘naviy madadlardan mahrum bo‘lgan, hayotning mazmunini ichkilikda, ko‘ngilocharlik va sevgida deb biladigan Genriga o‘xshash avlod ikkinchisi, Tog‘ay Murod, o‘zligini, tuyg‘ularini, shanini, g‘ururini, mag‘rurligini meros sifatida asrab qololmagan mana shunday yuksak insoniy tuyg‘ularni davom ettirolmagan yangi avlodidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ma‘lum bir davrda ustun bo‘lgan urush muammosi, yoki abadul-abad insoniyat bilan hamnafas kelayotgan muhabbat va farzand ko‘rishga intilish kabi tuyg‘ular hech qachon eskirmaydi. Aynan mana shunday qadriyatlar sababli inson o‘zini, shaxsiyatini, ruhiyatini kashf qilib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ernest Xeminguey. Chol va dengiz. –T.: “Yosh gvardiya”, 1986. –B. 43.

2. Murod, Tog‘ay. Oydinda yurgan odamlar. –T.: « Sano-standart» nashriyoti, 2017, –B. 87 .
3. Ernest Xeminguey. Chol va dengiz. –T.: “Yangi asr avlodi”,. –B. 448.
4. Baker ,Carlos.[1929] Ernest Hemingway A farewell to arms-New York: Charles Scribner’s sons. –B. 372
5. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B. 360
6. O‘tkir Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B. 30.